



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-dekabr

697-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirilishi hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda 780-son qarori ijrosi haqida”gi 582-6-0-Q/24-son qarori haqida

Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, sohadagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali normativ-huquqiy hujjatlar sonini maqbullashtirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 20-aprelda PF-113-son, “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvarda PF-8-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirilishi hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda 780-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 4-dekabrda 582-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda 582-6-0-Q/24-son qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrda 770-son qarori bilan: O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:
 - ayrim ruxsat berish tartib-taomillarini belgilashi;
 - xulosalar berish bo‘yicha tegishli davlat xizmatlarining pasportlarini tasdiqlashi;
 - xulosalar berish bo‘yicha arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibini belgilashi;
 - mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan davlat xizmatlarini ko‘rsatishga mas‘ul hisoblangan vakolatli organlar bir oy muddatda:O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatilishini ta‘minlashi;
 - mazkur qaror bilan kiritilayotgan davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur hujjatlarning namunaviy shakllari va blanklarini tasdiqlashi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- Manfaatdor tashkilot va idoralar o‘zlari qabul qilgan me‘yoriy hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrda 780-son qaroriga muvofiqlashtirsin va ushbu qaror talablari asosida ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov